

SUV TOSHQINLARI BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA OQIBATLARINI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Sultaniyazov Berdax Baxitbay uli

O'zbekiston Respublikasi FVV akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19510756>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida suv toshqinlari, sel oqimlari, qor ko'chishi va yer ko'chkisi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda Toshqinga qarshi hukumat komissiyasining faoliyati, davlat boshqaruvi organlarining vazifalari va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, daryolar o'zanlarini tozalash, qirg'oqlarni mustahkamlash va noruda foydali qazilmalarni qazib olish tartibini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: suv toshqini, sel oqimi, favqulodda vaziyat, huquqiy asos, Hukumat komissiyasi, daryo o'zanini tozalash, qirg'oqni mustahkamlash, fuqaro muhofazasi, xavfli gidrometeorologik hodisalar.

LEGAL FRAMEWORK FOR THE PREVENTION AND MANAGEMENT OF FLOOD-RELATED EMERGENCIES

Abstract. This article analyzes the legal framework for the prevention and elimination of the consequences of emergency situations related to floods, mudslides, avalanches, and landslides in the Republic of Uzbekistan. The study highlights the activities of the Government Flood Control Commission, the tasks of state administration bodies, and the significance of regulatory legal acts in this field. Furthermore, it describes the legal mechanisms regulating the cleaning of riverbeds, bank reinforcement, and the extraction of non-metallic minerals.

Keywords: flood, mudslide, emergency situation, legal framework, Government Commission, riverbed cleaning, bank protection, civil protection, hazardous hydrometeorological phenomena.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И ЛИКВИДАЦИИ ПОСЛЕДСТВИЙ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАВОДНЕНИЯМИ

Аннотация. В данной статье анализируются правовые основы предупреждения и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций, связанных с наводнениями, селевыми потоками, снежными лавинами и оползневыми явлениями в Республике Узбекистан. В исследовании освещается деятельность Правительственной комиссии по борьбе с паводками, задачи органов государственного управления и значение нормативно-правовых актов в данной сфере. Также изложены правовые механизмы, регулирующие очистку русел рек, укрепление берегов и добычу нерудных полезных ископаемых.

Ключевые слова: наводнение, селевой поток, чрезвычайная ситуация, правовая основа, Правительственная комиссия, очистка русла реки, берегоукрепление, гражданская защита, опасные гидрометеорологические явления.

Kirish. Global iqlim o'zgarishlari natijasida tabiatda gidrometeorologik va geologik jarayonlarning shiddatligi ortib borayotgan bugungi kunda, aholi va hududlarni favqulodda

vaziyatlardan muhofaza qilish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi tog‘li va tog‘oldi hududlari keng maydonni egallagan mamlakatlar uchun suv toshqinlari, sel oqimlari hamda yer ko‘chkisi kabi tabiiy ofatlarning oldini olish milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Suv toshqinlari va sel hodisalari nafaqat qishloq xo‘jaligi ekinlari va infratuzilmaga zarar yetkazadi, balki insonlar hayoti va salomatligiga ham jiddiy tahdid soladi.

Shu sababli, respublikamizda ushbu turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi PQ-426-son qarori va 2023-yildagi PF-202-son Farmoni sohadagi faoliyatni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjatlar bilan daryo o‘zanlarini tozalash, qirg‘oqlarni mustahkamlash va favqulodda vaziyatlarda davlat boshqaruvi organlarining o‘zaro hamkorlik mexanizmlari aniq belgilab berildi.

Ushbu maqolada suv toshqinlari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishning huquqiy-tashkiliy asoslari, Hukumat va hududiy komissiyalarning vakolatlari hamda daryo o‘zanlarini muhofaza qilishga oid zamonaviy talablar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, xavfli gidrometeorologik jarayonlar yuz berishi mumkin bo‘lgan sharoitda aholi xavfsizligini ta‘minlashning amaldagi tartib-taomillari yoritib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida suv toshqinlari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muhofaza qilish fuqaro muhofazasi hamda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasiga oid Qonunlar, farmonlar, qarorlar, shuningdek, respublika Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining ko‘rsatmalari asosida tashkil etiladi va olib boriladi.

Bunda “Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi va rivojlanishining oldini olish, ulardan keladigan talofatlarni kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish vazifasi belgilangan. Ushbu sohadagi eng muhim amaliy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-son qarori hisoblanadi. Mazkur qaror toshqinlar va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish ishlari samaradorligini oshirishni maqsad qilgan.

Mazkur qaror bilan “Xavfli gidrometeorologiya va geologiya hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish bo‘yicha ishlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlangan. Shuningdek, Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta‘minlash, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha Hukumat komissiyasi tarkibi yangilangan. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagicha belgilangan:

hukumat komissiyasi har yil yakunida yil davomida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilib, kelgusi yil uchun kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Respublikada Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasining raisi — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri hisoblanadi.

Komissiya tarkibiga tegishli vazirlik, idora va manfaatdor tashkilotlar rahbarlari kiritilgan bo‘lib, uning qabul qilgan qarorlari barcha davlat organlari va fuqarolar uchun majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari raisligida joylarda Hududiy komissiyalar tuziladi.

Xavfli gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlarni oldindan aniqlash, aholini va hududlarni toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chishi va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek ularning oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish tartibini belgilash;

- xavfli gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish ishlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga muvofiq amalga oshirish.

Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasining ishini tashkil etish va uning asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

- gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, aholini va hududlarni muhofaza qilish darajasini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- xavfli gidrometeorologik va geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va muassasalar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining faoliyatni muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va muassasalar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida xavfli tabiiy hodisalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rganish, shuningdek mansabdor shaxslarning ushbu masala bo'yicha hisobotlarini tinglash.

Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi o'z faoliyatini komissiya yig'ilishlarida muhokama etib, uning raisi tomonidan tasdiqlanadigan majlis bayoniga va rejaga muvofiq amalga oshiriladi hamda toshqinga qarshi Hukumat komissiyasining yig'ilishlari zaruratga qarab yiliga kamida ikki marta o'tkazilib, uning qarorlari majlis bayoni bilan rasmiylashtiriladi va ijroga qaratiladi.

Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi har yili 15 fevralga qadar toshqinlar, sellar, qor ko'chkilari va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha asosiy tadbirlarni ishlab chiqilishini tashkil etadi, uni muhokama qilib tasdiqlaydi.

Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi har yili 1 martga qadar, shuningdek toshqinlar, sellar, qor ko'chkilari va ko'chki hodisalari bilan bog'liq real xavf yuzaga kelganda, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va ularning oqibatlarini bartaraf etishga mavjud kuch va vositalarning tayyorgarlik holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ma'lumotlarni taqdim etadi.

Zaruratga qarab ko'zda tutilgan ishlarni amalga oshirish uchun Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi vazirliklar, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, tashkilot va muassasalar mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlarini tuzadi.

Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasini tugatish yoki qayta tashkil etish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlarining xavfli gidrometeorologik va geologik hodisalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 noyabrdagi "oshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-426-son Qarori bilan belgilab qo'yilgan.

A-373 "M-39 Guliston-Bo'ka-Angren-Qo'qon va Andijon orqali O'sh" avtomobil yo'lining Qamchiq dovoni hududida va boshqa muhim ahamiyatga ega transport kommunikatsiyalarida aholi va transportlarning xavfsiz harakatini ta'minlash uchun o'z vaqtida muhandislik-himoya tadbirlarini amalga oshirishdan iborat etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-dekabrdagi "Daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, noruda foydali qazilmalarni qazib olish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-202-son Farmoni abul qilindi. Mazkur Farmon daryo o'zanlarida ekologik vaziyatni yaxshilash va gidrotexnika inshootlarining xavfsiz ishlashini ta'minlashni maqsad qilgan. Unga ko'ra:

Daryolar o'zanlarini tozalash ishlari Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi "Xavfsiz daryo" davlat muassasasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Daryo o'zanlarida qum-shag'al materiallarini qazib olishga faqat ularni tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash loyihalari doirasida ruxsat beriladi.

Daryo o'zanlarini tozalash loyihalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

Shuningdek, sohada faoliyat yuritayotgan Idoralararo guruhlarining asosiy vazifalariga daryo o'zanlarini tozalash ishlarining qonuniyligini o'rganish, noqonuniy qazib olish holatlarini aniqlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari ko'rish kiradi.

XULOSA

Suv toshqinlari, sel oqimlari va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Huquqiy bazaning takomillashuvi: O'zbekiston Respublikasining yangilangan qonunchilik hujjatlari, xususan, Prezidentning PQ-426-son qarori va PF-202-son Farmoni, sohadagi boshqaruv tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu hujjatlar nafaqat favqulodda vaziyatlarga munosabat bildirish, balki ularni barvaqt prognoz qilish va oldini olish bo'yicha aniq vertikal boshqaruv tizimini yaratdi.

Tashkiliy muvofiqlashtirish: Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalarning faoliyati davlat organlari, vazirliklar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Komissiya qarorlarining barcha darajadagi ijrochilar uchun majburiylik ehtimoliy xavf-xatarlarga qarshi kurashishda tezkorlik va samaradorlikni oshiradi.

Ekologik va muhandislik xavfsizligi: Daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlarining "Xavfsiz daryo" davlat muassasasi tomonidan tizimli ravishda amalga

oshirilishi, shuningdek, noruda qazilmalarni noqonuniy qazib olishga qarshi qat'iy choralarning belgilanishi gidrotexnika inshootlarining turg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Strategik ahamiyat: Suv toshqinlari va sel xavfidan aholini muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy xavfsizlikni, balki muhim transport kommunikatsiyalari (masalan, Qamchiq dovoni) va qishloq xo'jaligi hududlarining barqaror faoliyatini kafolatlovchi iqtisodiy omil hamdir.

Umuman olganda, belgilangan huquqiy asoslarga qat'iy rioya etish, monitoring tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish respublika hududida favqulodda vaziyatlar xavfini minimal darajaga tushirishning eng samarali yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (yangi tahriri). – Toshkent: Adolat, 2022-y. – 14–22-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida, 18.11.2022-yildagi PQ-426-son. // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz)*. – 3–10-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, noruda foydali qazilmalarni qazib olish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 04.12.2023-yildagi PF-202-son. // *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*. – 5–12-betlar.
4. Qamchiq dovoni hududida transport harakati xavfsizligini ta'minlash va muhandislik-himoya tadbirlari: Hisobot to'plami. – Toshkent: FVV Akademiyasi, 2023. – 44–51-betlar.